



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA IJTIMOYIY SHERIKLIK

Salomatxon Karimbaeva

Namangan davlat universiteti, dotsent

Nasibaxon G'anieva

Namangan shahar 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi, o'qituvchi

Annotatsiya

Axborot texnologiyalarining globalashuvi va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga shiddat bilan kirib borishi ta'lim va tarbiya jarayonida bir qator ta'lim muammolariga sabab bo'ldi. Yoshlarning internet tizimiga mukkasidan ketishi, axborot qaramligi, virtual reallikka bog'lanishi ta'lim va tarbiya tizimini jiddiy islohini talab etmoqda. Shu bilan birga an'anaviy ta'limdan voz kechib zamonaviy ta'limga o'tish jarayoni kutmilgan natijani bermadi. Shu ma'noda raqamlashgan jamiyatda boshlang'ich sinfdan o'quvchilarni ilm-fan bilan shug'ullanishi uchun maktab ta'limida oila va va o'qituvchilarning ijtimoiy sheriklik kelishuvi vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish imkoniyatidir. Shu ma'noda makola boshlang'ich sinfdan yoshlarni ta'lim ijtimoiy intizomiga odatlantirish asosida yangi avlod barkamolligi g'oyasini ilmiy muhokamaga qo'yishdir. Oila va maktabning hamkorligi ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim sifatini yangi bosqichini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar. Raqamli jamiyat, boshlang'ich ta'limda ota onalar, o'qituvchi, odatlantirish pedagogikasi.

СОЦИАЛЬНОЕ ПАРТНЕРСТВО В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Саломатхон Каримбаева

Наманганский государственный университет, доцент

Насибaxon Ганиева

учитель школы №7 общего среднего образования города Намангана

Аннотация

Глобализация информационных технологий и их стремительное проникновение во все сферы общественной жизни породили ряд образовательных проблем в процессе обучения и воспитания. Пристрастие молодежи к интернету, информационная зависимость и виртуальная реальность требуют серьезной реформы системы образования и воспитания. В то же время переход от традиционного образования к современному не принес ожидаемых результатов. В этом смысле в цифровом обществе соглашение о социальном партнерстве между семьями и учителями в школьном образовании, направленное на вовлечение учащихся начальной школы в научную деятельность, представляет собой возможность изменить ситуацию к лучшему. В этом смысле в статье выдвигается идея нового поколения развития, основанного на приучении молодежи начальной школы к социальной дисциплине научного образования. Сотрудничество семей и школ обеспечивает новый этап качества образования, основанный на социальном партнерстве.

Ключевые слова: цифровое общество, родители в начальном образовании, учитель, педагогика привыкания.

SOCIAL PARTNERSHIP IN PRIMARY EDUCATION

Salomatxon Karimbaeva

Namangan State University, Associate Professor

Nasibakhon G'anieva

Secondary School No. 7 of Namangan City, Teacher

Abstract

The globalization of information technologies and their rapid penetration into all spheres of social life have caused a number of educational problems in the process of education and upbringing. The addiction of young people to the Internet, information addiction, and virtual reality require a serious reform of the education and upbringing system. At the same time, the transition from traditional education to modern education has not yielded the expected results. In this sense, in a digitalized society, the social partnership agreement between families and teachers in school education for students from primary school to engage in science is an opportunity to change the situation for the better. In this sense, the article is to

put forward the idea of a new generation of development based on accustoming young people from primary school to the social discipline of education for scientific discussion. The cooperation of families and schools provides a new stage of education quality based on social partnership.

Keywords. Digital society, parents in primary education, teacher, habituation pedagogy.

O‘zbekistonda ijtimoiy, dunyoviy davlatchilik yuzasidan konstitutsion islohotlar shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida inson huquq va manfaatlari davlat siyosatining bosh maqsadi qilib qo‘yilishi bilan yangi O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining inklyuziv mazmunini o‘zgartirmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida yurtimizda demokratik islohotlarning maqsad va muddaosi har bir fuqaroga munosib turmush shart-sharoitini ta‘minlash bo‘lib, milliy taraqqiyot strategiyasi Uchinchi Renessans sifatida belgilandi. Shu ma‘noda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan maktab ta‘limi va tarbiyasini rivojlantirishning dolzarb muammolari “Najot ta‘limda, najot bilimda, najot tarbiyada” jadid ma‘rifati ustuvor ta‘lim vazifasi sifatida belgilab olindi. O‘zbekiston hukumati mamlakat kelajagi, barcha soha va loyihalar muvaffaqiyati bilimli yoshlarga bog‘liq ekanligidan kelib chiqib, ta‘lim sifatini rivojlantirishda o‘qituvchilar mavqeini yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida alohida yo‘nalish sifatida aynan ta‘lim sohasi, inson kapitalini rivojlantirish e‘tirof etilishi yangi avlod tarbiyasining ma‘rifatini ko‘zlaydi. Davlatimiz rahbari bu hayot-mamot masalasi ekani tufayli soha islohotlarini kechiktirmay, maktab ta‘limiga poydevorni mustahkamlashga barcha resurslar safarbar etilishi muammolarning yechimi ekanini ta‘kidladi.

Maktabdagi ta‘lim-tarbiya faqat direktor va uning yordamchilarining ishi emas, balki barcha mahalliy idora, hokimlik, ilmiy tashkilot, ziyolilarning jamoatchilik asosidagi vazifasi hisoblanadi. Chunki 10 mingdan ortiq maktab islohoti 6 milliondan ziyod o‘quvchilar, 500 mingdan ortiq muallimlar bilan birga barcha ijtimoiy qatlamlarning hayotiga ta‘sir etmay qolmaydi. Yurtboshimiz dolzarb masala sifatida 1 ming 695 ta maktabning ta‘miri, hanuzgacha 179 tasi paxsa devorli ekani, 3 mingdan ziyodida esa qo‘shimcha o‘quv binolari va sport zallariga ehtiyoj zarurligini ma‘lum qildi.

Jamiyatning raqamli bosqichi axborot texnologiyalarining inson hayotining barcha sohalariga kirib borishi bilan ta‘lim va tarbiya jarayonining murakkab bosqichi bilan xarakterlanadi. Muammoning dolzarbli OAV, ayniqsa, internet imkoniyatlarining cheksiz global makonda har bir foydalanuvchiga keng imkoniyatlar yaratishi, undan foydalanuvchilarning axborot olish va saqlash, qayta ishlash, tarqatish nazoratining amalda imkonsizligi, ta‘lim tizimida ijtimoiy intizomni ta‘minlashda o‘qituvchi talab doiralarining cheklanishi, ota-onalarning bolaning ta‘limiga loqaydligi bilan vaziyat nozik pallaga kirayotganida namoyon bo‘lmoqda [7].

O‘zbek xalqi o‘zining ijtimoiy taraqqiyotini tarbiya bilan ta‘min etishi, ota-onalarning milliy-diniy odat, an‘analar asosida farzand tarbiyasi bolani ijtimoiylashtirish bilan birga maktab ta‘limida faol ijtimoiy hamkorlik qilgan, ilmiy dunyoqarashni bolada shakllantirish vakolatini ustozga ishongan [5, 6-b.]. Shu bois ta‘lim va tarbiyada oila, maktab va davlat boshqaruvining o‘ta dolzarb ijtimoiy sherikligi va jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi bilan buyuk mutafakkirlar tarbiyalangan. Maktab ta‘limi o‘z mohiyatiga ko‘ra ota-onalarning o‘z farzandining bilim olishi, yaxshi inson bo‘lishidan manfaatdor ekan, o‘qituvchining ishiga aralashmay, o‘qituvchini haqorat qilish, kaltaklash, hatto sudga berish o‘rniga “bolasining suygiga da‘vo qilishi” milliy najot, saodat va barkamol avlod istiqbolidir. Biz maktab ta‘limining inqirozi sharoitida maktabda ijtimoiy intizomni o‘rnatish, o‘quvchilarning ommaviy ilm-fan bilan shug‘ullanishiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda, deb hisoblaymiz. Ilm-fan, ta‘lim va tarbiya, ilmi hamyurtlarimizni yoshlar uchun axloqiy ideal, qadrlı inson maqomiga ko‘tarmay boshlang‘ich sinf o‘quvchisida o‘qishdan maqsad hosil qilib bo‘lmaydi [3, 39-b.]. Bolaning maktab ta‘limidan maqsad-muddaosini shakllantirish, uning qalbida yuksak orzu-niyatlarsiz bir harfni ham o‘rgatib bo‘lmaydi.

Asosiy qism. Sharqona ta‘limda “odatlantirish” ta‘lim texnologiyasi muhim pedagogika hisoblanadi. Chunki inson tabiati o‘rganish sharoitiga sekin moslashadi, ilm olishda esa qunt bilan o‘qish, topshiriqlarni bajarish, bajarmagan vaqtda bajarishga majburlash bolaning tabiatida mehnatga, aqliy mehnatga qobiliyatni uyg‘otishdir. Boshlang‘ich sinflarda ota-onalarning maktab ta‘limi bilan faol shug‘ullanishi bolaga fanlarni o‘zlashtirishga yordami bilan bola keyinchalik mantiqiy ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lib boradi [4]. Bu hol ta‘limdagi muhim ijtimoiy sheriklik vazifasi bo‘lib, rivojlangan davlatlar tajribasida sinovdan o‘tgan. Bil‘aks, ota-onalar bolaning o‘qishi, ilm olishi masalasini maktabga yuklab, o‘zlari biznes bilan shug‘ullanishi, bola tarbiyasi deganda moddiy oziq-ovqat, kiyim-kechak ta‘minoti bilan cheklanishi fojiali xatolardandir.

Bolaning maktabda faol ilmiy tafakkurini shakllantirish uchun oilaviy sog‘lom muhit, ota-

onalarning “tarbiyachi” maqomiga ega bo‘lishi muhimdir. Ko‘pchilik ota-onalarning o‘zi bolaga yaxshidan ko‘ra yomon namuna rolini o‘ynashi, bolalarning ko‘pchiligi bobo va buvining nazoratidan ajratilgani, yosh ota-onalarning esa bolaga “vaqti” yo‘qligi muammosi oilaning muhim ijtimoiy muammosiga aylangan, deb hisoblaymiz. Shu ma’noda milliy manfaatlar ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi, yoshlar tarbiyasini maktab, oila, mahalliy davlat hokimiyati tizimining o‘ta mas’ul sheriklik faoliyatiga ehtiyoj sezilmoqda [8]. Mazkur masala davlatning yoshlarga oid siyosati bilan bog‘liq masala sifatida har bir fuqaroning milliy burchi ekanligini “kecha” tan olishimiz kerak edi.

Milliy taraqqiyot maqsadlari tarbiya, ilm-fan, texnika taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida yanada muhim omilga aylanib, zamonaviy raqamli texnologiyalar har tomonlama intellektual salohiyatli, kreativ ijodkor yoshlarni talab etmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichi avlodlar turmushidagi o‘zgarish, ularning aloqalarida yangi davrni boshlashi insoniyat madaniy rivojida an’anaviylikdan yangilangan innovatsion hayotga o‘tish bilan ularning turmush tarzi, fikrlash doirasi, ijtimoiy mo‘ljallarida jiddiy o‘zgarish va yangilanishlarga olib kelmoqda [10, 124-b.]. An’anaviy oilada ota va ona, maktabda esa o‘qituvchining obro‘-e’tibori, reytingi yuqori bo‘lsa, zamonaviy taraqqiyotda farzandlarning oiladagi ijtimoiy maqomini o‘shishi, maktabda esa muallimning oliy qadriyat sifatida tiklanishi zaruriyatdir. Zamonaviy ta’limda xorijiy ilmiy texnologiyalarni qo‘llash kerakdir, lekin yurtimiz allomalari milliy pedagogika bilan yetishib chiqqan. Odatlantirish pedagogikasi milliy ta’limning ming yillik tajribasi bo‘lib, ilm olishga odatlangan bola alloma bo‘lishi tabiiy holdir. Ikkinchidan, boshlang‘ich ta’limda ota-onalarning, ya’ni oila va maktabning shartnomaviy aloqasi, bevosita tarbiyaviy sherikligi zaruriyat ekanligini tajriba tasdiqladi.

Fikrimizcha, bolalarning 6–10 yoshi jismoniy va ruhiy jihatdan eng kuchli davri bo‘lib, shaxsning ilm-fan tafakkur ko‘nikmalari uchun birinchi g‘ishtchalar qo‘yilishi bilan barkamollik yoki o‘ziga xos “Qutadg‘u bilig”dir [9, 31-b.]. Darhaqiqat, bolaning tanasiga nisbatan kuch-quvvati, g‘ayrat-shijoati beqiyos darajada yuqoriligidan ta’lim boshqaruvida nazoratiga jiddiy ehtiyoj sezadi. Niholning to‘g‘ri o‘shidek, bolaning ham yaxshi tarbiyasi ijobiy natijaga umid uyg‘otadi. Jamiyatda ma’naviy yuksalish islohi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatli mehnati bilan boshlanadi. Bolaning maktabga qo‘ygan birinchi kunida o‘tirgan partasidan o‘z kelajagini ta’minlashi ustozning bola yuragiga ezgulik cho‘g‘ini yoqa olishidadir.

Bizning kuzatishlarimiz boshlang‘ich ta’limga ta’sir etuvchi bosh omil an’anaviy oilaning zamonaviy oilaga o‘tishi, ya’ni bir necha avlodlarning birgalikda yashashidan har bir ota-onaning farzandlari bilan alohida yashashga o‘tishi ekanligini ko‘rsatdi. An’anaviy oilalarda boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar ko‘p vaqt bobo va buvilarining ta’sirida bo‘lishi, ularning pand-nasihatlarini olishi, ilk hayotiy tajribalarga ega bo‘lishi bilan muhim edi. Zamonaviy oilada esa ota va onaning doimiy o‘z kasbiy faoliyati bilan bandligi, farzandi bilan bevosita tarbiyaviy aloqadorlikdan uzilishi o‘ziga xos jihat va xususiyatlarni kasb etadi [4]. Biz ota-onalarning farzandlarga mehr-muhabbatini odatdagidan o‘ziga xos yuqoriligini ham tan olamiz. Boz ustiga, oilalarning to‘liq emasligi, to‘liq oilada esa ota yoki onaning oila boqish niyatida davomiy xorijiy safarlarda bo‘lishi ham tarbiyaning “aso”ga ehtiyojini tug‘dirmoqda. Bularning barchasi tarbiyadagi muhim dastak — oilaviy va “mahallaviy” nazoratning yildan-yilga pasayib borishi bilan milliy ma’naviyatga jiddiy tahdidir. Shuning uchun ham oila va maktabning ma’naviy qo‘rg‘onini mustahkamlash ehtiyoji odatdagidan ko‘ra ortib bormoqda. Biz bola tarbiyasidagi ijtimoiy muhit omilining yetakchi o‘rin tutishiga iqror bo‘lsak-da, tarbiya obyektiga bo‘ladigan ma’naviy ta’sir omilining yetakchilik jihatiga ustuvorlik berishga moyilmiz.

Murakkab oila, ya’ni bir necha avlodlar birga istiqomat qiladigan sharoitda nabiralalar ko‘p vaqt bobo va buvilarining ta’sirida bo‘lishi haqida mutaxassislar fikriga qo‘shilamiz [5, 6-b.]. Bobo va buvilarining bolalar jinsiga qarab ilk kasbiy o‘g‘itlarni, jamiyat va tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbatni shakllantirish, ilm olishga rag‘bat berishda ishtirokining pasayishi kuzatilmoqda. Oiladagi farzandlarning “dastyorlik” ishi mehnat tarbiyasi bilan birga axloqiy talablarga bo‘ysunish ruhiyatini vujudga keltiradi. Qolaversa, bobolar bilan milliy odat va an’analarda ishtirok etish esa ularda milliy g‘oyaning boshlang‘ich tamal toshidir [5]. Bobo va buvilar o‘zlarining ota-onalari haqida nabiralarga qiziq-qiziq voqealar, yengib o‘tgan turmush murakkabliklari hikoyasi bilan ibrat maktabi hamdir [9, 5-b.]. Shu ma’noda oila keksalarining muhiti bolalarga ota-onalarining muhitidan bir qator ma’naviy sog‘lomlik tomonlari bor, deb hisoblaymiz.

Bobo va buvilarining nabiralarni tarbiyalashdagi yana bir muhim quroli xalq og‘zaki ijodi bilan yaxshi qurollanganligidir. Bola ota-onasiga qaraganda keksalardan eshitgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, doston-u marsiyalar, ertak va latifalarni diqqat bilan eshitishi va yaxshiroq yodda saqlashi

tabiidir. Chunki bobo va buvilarning bayonida ishonchliroq chiqishi, badiiy to‘qima va sifatlar to‘laqonli ifodalanishi bilan bolaga yoqadi. Bu hol bolaning murg‘ak qalbida xalq og‘zaki eposining bunyodkorlik g‘oyasi mustahkam o‘rin oladi. Bobo va buvilarning og‘zidan eshitgan kenja botirning qahramonliklari bolaga ertak bilan real voqelikni bir-biriga bog‘lashning chiroyli iliq tuyg‘ulari bilan ko‘ngil dunyosini bunyod etadi. Keksalarning ravon, tushunarli tildagi nutqi bolaning qahramonlarga taqlid qilishga intilishi bilan birga o‘qishga ishtiyoqini o‘stiradi [6]. Shu o‘rinda ota-onalar bolalarga xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq badiiy kitoblarni sotib olishi masalaning bo‘shliqlarini to‘ldiradi. Bu esa biz ko‘zlagan bosh maqsaddir.

Bobo va buvilardan eshitganlarini bolalar o‘zaro bir-biriga “bahri bayt” qilishini ham yoddan chiqarmaslik darkor. Ular eng qiziq ertak va latifalarni o‘zaro do‘stona bir-biriga yetkazishi og‘zaki notiqlik san‘atini shakllantirib, adabiyot va san‘atga bolani yetaklaydi. Ular o‘z fikr-mulohazalarini chiroyli bayon etish, bahslashish va o‘z fikriga o‘zgalarni ishontrish ko‘nikmalarini aslida ana shu tajribalarda oladi. Demak, bola dunyoqarashining shakllanishida oila va maktabning uzviy hamkorligini yaxshilash dolzarb vazifadir.

An‘anaviy ta‘limda bolalar boshlang‘ich ta‘lim uch yil bo‘lsa, uch yil davomida jismoniy tarbiya, rus tilidan tashqari hamma darslarni birgina o‘qituvchi o‘qitgan. O‘qituvchi va o‘quvchi tushlikkacha o‘qib, maktab oshxonasida ovqatlanib olganlar. Bu “gruppa” deb atalib, tushlikdan so‘ng biroz harakatli o‘yinlar o‘ynab, kunni uzaytirilgan guruhda uyga berilgan vazifalar bajarilgan. Bu mashg‘ulotlar, ya‘ni uy vazifalari alohida o‘qituvchi tomonidan ham amalga oshirilgan. Mutaxassislar boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qish-o‘qitish bola uchun ham, o‘qituvchi uchun ham, qolaversa, ota-onalar uchun ham ancha murakkab jarayon ekanligini e‘tirof etadilar. Chunki boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchidan har bir bolaga alohida yondashuv bilan maktabga ko‘niktirish, bilim berish, sinfda jamoaviy madaniyatga o‘qitishni talab etadi. Ota-onalarga farzandining maktabga chiqishi ijtimoiy hodisa bo‘lib, o‘quvchining hayotida ham katta o‘zgarishlar yasaydi. Ota-onalar farzandi kelajagiga befarq bo‘lmay faol nazorat olib borsa-da, o‘quv mashg‘uloti, uy vazifalariga yordam berishga vaqt ajrata olmaydi. Shu ma‘noda ota-onalarning bolasining maktabga kelishi-ketishi bilan birga uyda uy vazifalarini bajarishda boshlang‘ich sinfda yordami o‘ta muhim zaruriyat. Bolaning ilmiy dunyoqarashi va tafakkurining “kemtik”larini to‘ldiradi. Biz bolaning boshlang‘ich sinfda axborot qabul qilish imkoniyatlarining o‘ta yuqoriligi shaxs sifatida shakllanishida muhimligidan ota-onalarning bola ta‘limidagi “o‘rindosh o‘qituvchi” ijtimoiy funksiyasini ijtimoiy sheriklik ma‘nosida tushundik.

Xulosa. Biz ta‘limning boshlang‘ich qismi muhim bir bosqich sifatida tahlil va talqinlardan quyidagi fikr-mulohazalarning tarbiyaviy jihat va xususiyatlariga e‘tibor lozim degan fikrdamiz:

1. Raqamli jamiyatda ta‘lim va tarbiyaning yangi sifat bosqichi, axborotlashgan o‘quvchining axborotlashmagan o‘qituvchiga internet tahdidi, ta‘limning tarbiyadan uzilishi ota-onalarning ijtimoiy sheriklik va javobgarligini talab etadi. Ota-onalar o‘z farzandlarini boshlang‘ich sinfda maktabga hurmat, ilm olishga qiziqishning muntazamligini, o‘quvchining chiroyli fazilatlarini shakllanishida maktab oldida javobgarlik mas‘uliyatiga ehtiyoj ortib bormoqda;
2. Ota-onalarning farzand tarbiyasi vaqt byudjetini, bolalarning qiziqish va ijtimoiy intilishlarini o‘rganish darkor. Farzand tarbiyasi nafaqat oila va maktab, balki mahalla, bolaning qarindosh-urug‘larining jamoaviy mehnatini talab etadi;
3. Zamonaviy tarbiyada xalq og‘zaki ijodini biroz “modernizatsiya”lashga ehtiyoj borgan o‘xshaydi. Chunki yangi avlod zamonaviy tarbiyada yaratuvchilik va milliy manfaatlar yo‘g‘rilgan ertaklarga muhtoj. Xalq og‘zaki ijodi bolalarni o‘qishga qiziqtirishi bilan muhim missiyani bajaradi;
4. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda qo‘shimcha chora va tadbirlar sog‘lom bola, kasb-hunarga ega tashabbuskor tadbirkor, ilm-fan, madaniyatga chorlovchi insonni ruhan poklash va ma‘naviy ulg‘aytirib, imon-e‘tiqodi va vijdonini uyg‘otadi. Bu tarbiyaviy ta‘sirda ma‘naviy sog‘lomlik ila bolalarga ijtimoiy tartib-odobning boshlang‘ich ko‘nikmalarini berishi bilan maktab va oila hamkorligini yanada beqiyos qadriyatga aylantiradi;
5. MDH davlatlarining aksari qismi ta‘lim tizimida o‘quvchilarning mobil aloqa vositalaridan foydalanishini cheklovchi me‘yoriy aktlarni qabul qildi. Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarni muayyan mobil aloqa, qimmatbaho telefonlarga o‘rgatish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ustozlarga bo‘lgan munosabatida hurmat va e‘tiborli bo‘lishida ota-onalarning yordamiga maktab muhtojdir. Ayni paytda ta‘lim jarayonida o‘qituvchi bolaning ilm-fan asoslarini egallashida o‘quv jarayoni intizomini mustahkamlashiga ota-onalarning bevosita ijtimoiy sherikligi emas, balki huquqiy javobgarligini ham so‘ragan bo‘lardik. Zamonaviy o‘quvchilarning axborot texnologiyalari

bilan ta'minlanishi ham o'qituvchining ta'lim va tarbiya ishini murakkablashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumanazarova G. Boshlang'ich sinflarda iboralarni o'rganish metodikasi. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. — 52 b.
2. Ликошин Н. Кодекс приличия М. Кошгари. — Казань, 1911. — 36 с.
3. Макаренко А.С. О воспитании / сост. В. Хелемендик. — М.: Политиздат, 1990. — 415 с.
4. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. — T.: Fan va texnologiya, 2010. — 276 b.
5. Минаваров А.К. Педагогические условия повышения эффективности семейного воспитания. — Т.: Фан, 1989. — 36 б.
6. Монтессори М. Полный курс воспитания: сборник. — М.: АСТ, 2017. — 592 с.
7. Пашкова Н.В. Проблема самоидентификации «Я» и «Мы» в условиях глобализации // Вестник высшей школы Alma Mater. — 2021. — № 8. — С. 105–107.
8. Теория обучения: учебное пособие / сост. В.Г. Закирова и др. — Казань: Казанский университет, 2018. — 168 с.
9. Turg'unov S. Zamonaviy ta'limda xalq og'zaki ijodi. — T.: Fan, 2001. — B. 31.
10. Ergashev R., Boltaboyeva A. Boshlang'ich sinflarda ta'limning interfaol usullari // Boshlang'ich ta'lim mazmunini optimallashtirishning muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Qarshi, 2014. — 176 b.
11. Худякова Н.Л. Воспитывающая функция образования. — Челябинск: Урал РАО ЧелГУ, 2000. — 60 с